

## "Fotosuratlar shahri" bo'lgan Higashikava - fotomadaniyat poytaxti

### 3-bor o'tkazilayotgan KAGU "Kuma Kengo va Higashikava shahri" xalqaro dizayn tanlovi

#### Kirish:

Mahalliy hududlarning qiymati va salohiyati qayta ko'rib chiqilayotgan bir paytda, Daisetsu tog'lariga qaragan tabiiy yer osti suvi bilan go'zal qishloq landshaftida ega fotosurat madaniyatining poytaxti Hokkaidodagi "Fotosuratlar shahri" bo'lgan Xigashikava shahri, mintaqani loyihalashtirgan me'mor Kengo Kuma bilan birgalikda biz arxitektura va mebel orqali yaratilgan boy hayotga qaratilgan yangi tashabbusni ilgari suramiz.

Higashikava uzoq vaqtdan beri faqat mebel ishlab chiqarish hududida joylashgan kichik shaharcha bo'lganligi sababli amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tashabbuslarda ishtirot etgan. Bu shaharchadagi bolalarga g'amxo'rlik qilish uchun yaratilgan "Sening o'rindig'ing" degan loyihadan boshlangan. Boshlang'ich mакtabda o'quvchilar yog'ochdan yasalgan maktab jiholarida o'qishadi, o'rta maktabga o'tgach, esdalik sifatida uch yil davomida ishlatgan yog'och stullarini uylariga olib ketishadi. Mebel ishlab chiqarish sohalariga xos bo'lgan bunday uzlusiz sa'y-harakatlar nihoyat kelajak avlodga yetaklovchi yoshlarni tarbiyalash bosqichiga kirmoqda.

Ayni paytda butun dunyo koronavirus bilan bog'liq yangi inqirozni boshdan kechirayotgan bir paytda, aholi gavjum metropoliyada turmush tarzi bilan bog'liq muammolar yanada yaqqol namoyon bo'lib, yangi turmush tarzini izlash boshlanadi. Yaponianing har bir hududi o'ziga xos salohiyati va qadriyatidan kelib chiqib, yangi turmush tarzini barpo etishga sabab bo'lyapti deb o'layman. Bunday sharoitda, erta bosqichdanoq arxitektura orqali mintaqaning jozibadorligini targ'ib qiluvchi va mintaqaviy dizayn haqida arxitektura olamidan targ'ib qilayotgan arxitektorlar, masalan, mintaqaviy resurslardan foydalanishni kengaytirish va kelajak avlodni yetaklovchi yoshlarni tarbiyalashga katta qiziqish bildirmoqda. Kengo Kuma va o'zining go'zal tabiatini va rivojlangan mebel sanoatiga ega Higashikava shahri, yangi turmush tarzini targ'ib qilish uchun birgalikda ishlaydi.

#### Maqsad:

Hokkaidodagi Asahikava mebelining assosiy ishlab chiqarish hududi bo'lgan Higashikava shaharchasi, kelajak avlodimiz bo'lgan yoshlari uchun yangi turmush tarzi bo'yicha takliflarga olib keladigan "KAGU" dizaynnini qidirmoqda.

KAGU - bu odamlar va dunyonи bog'laydigan narsalar uchun umumiyligi atama bo'lib, an'anaviy mebel tushunchasining kengaytmasi hisoblanadi. Biz kundalik hayotimizda turli xil narsalardan foydalanamiz, ammo bu narsalar qanday yaratilgani va unda nima ishlatilganligi, uning orqasida nimalar borligi haqida tushunishimiz qiyin.

Men qo'pol muomala, beparvolik, vaqtini tejash va natijaga shoshilish, vaqtini qadrini bilmaslik va chuqr o'ylash katta turmush inqirozini keltirib chiqarishini tushundim.

Umid qilamanki, KAGU dizayn tanlovi ko'p imkoniyatlarga ega bo'lgan g'oyalaringizning shakllanib, uzoq vaqt qo'llanilishi hamda hayotni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun imkoniyat bo'ladi.

#### Tarkib:

**Mavzu:** "Ochiq havoda qo'yiladigan mebel"

- Asar ishtirokchining o'zi qo'llagan ko'rsatmalar, tanlov qonunlar-qoidalarga qat'iy rioya qilgan holda ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

- Asar ishtirokchining o'ziga xos asari bo'lishi va bitiruv (yoki ilmiy) ish ko'rgazmasida nashr etilmagan bo'lishi kerak.

KAGU "Kuma Kengo & Xigashchikawa-cho" dizayn tanlovi hakamlar hay'ati raisining xabari

Janob Kuma Kengo

*COVID-19 tufayli, uzoqdan ishlash kabi turmush tarzini o'zgardi va bizda sayr qilish va ovqatlanish uchun ko'proq imkoniyatlar yuza keldi.*

*Biz tashqarida ko'proq vaqt o'tkazganimiz sababli, uni qulay o'tkazish uchun tashqariga qo'yagan jihozlarimiz (mebellarimiz) ham o'zgaradi deb o'ylayman. Hayot tarzimizda inqilob sodir bo'lmoqda. Ushbu yangi hayot tarzimizni boyitadigan tashqarida qo'yiladigan buyumni taklif qiling.*

### **Muvofiqlik:**

2022-yil 31-martgacha Yaponiya va xorijdagi turli ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan, yoshi 30 dan kichik va undan katta bo'lgan talabalar ishtirok etishlari mumkin.

- Guruh ilovalarida guruhning barcha a'zolari talablarga javob berishi kerak.
- Bir kishi bir nechta guruhda qatnashishi mumkin emas.

### **Ruxsat berilgan ilovalar soni:**

Har bir ishtirokchiga bitta ariza yoki har bir guruhga bitta asar jo'natish.

- Bitta ishtirokchi bitta ariza topshirishi mumkin. Shuningdek, guruh ishtirokida bitta ariza qabul qilinadi. Bir ishtirokchiga bir vaqtning o'zida bir shaxsdan va guruhdan ariza topshirishi qat'yan man etiladi. Bitta shaxs yoki guruhning bir nechta arizalari qabul qilinmaydi.

### **Ro'yxatdan o'tish uchun to'lov:**

Tanlovda ishtirok etish bepul.

### **Ishning taqdimoti:**

Sarlavha, dizaynning asosiy g'oyasi, ishning tushuntirishi, shuningdek, ishning eskizi, chizmasi, kompyuter modeli yoki namunaviy fotosurati A3 formatidagi bir varaqda (bir tomonlama, landshaft yo'nalishi) mos kelishi kerak. PDF formatda bo'lishi kerak. Ish faqat ingliz yoki yapon tilidan foydalanishga ruxsat etiladi.

### **Bog'lanish uchun ma'lumot:**

- Quyidagi elektron manzilga to'liq ism-sharifingiz va siz bilan bog'lanish uchun mumkin bo'lgan telefon raqamingiz, ma'lumotingizni yuboring: official@kagu-higashikawa.jp. Tanlov tashkilotchisi tez orada siz bilan bog'lanadi.

### **Oldingan ro'yxatdan o'tish:**

Oldindan ro'yxatdan o'tish muddati: 28.02. 2023 y. (seshanba), soat 12:00 gacha! (Yaponiya vaqt bilan)

◆ Tanlovda ishtirok etish uchun oldindan ro'yxatdan o'tishingiz lozim. Belgilangan muddatgacha ro'yxatdan o'tmasangiz tanlovda ishtirok eta olmaysiz.

◆ Ro'yxatdan o'tish tanlovning rasmiy veb-sayti orqali amalgalashirilishi kerak. Ro'yxatdan o'tishda ishtirokchining (guruh bilan topshiriladigan bo'lsa, vakilning) elektron pochta manzili talab qilinadi. Oldindan ro'yxatdan o'tish jarayoni tugallangandan so'ng, Ijroiya qo'mitasi tomonidan ro'yxatdan o'tgan elektron pochta manziliga ro'yxatdan o'tish raqami, ariza shaklining URL manzili va parol yuboriladi.

### **Asarni topshirish muddati**

2023 yil 24 mart (juma) - 2023 yil 31 mart (juma) (Yaponiya vaqt bilan)

Asarni jo'natish muddati ichida oldindan ro'yxatdan o'tish vaqtida jo'natilgan ariza shaklida quyidagi (1, 2) larni yuboring. Ma'lumotlar talabga javob bermasa, asar qabul qilinmaydi.

#### **1 Tanlov uchun asarni jo'natish [PDF shaklida]**

- Sarlavha, dizaynning asosiy g'oyasi, shuningdek, asarning eskizi, chizmasi, kompyuter modeli yoki namunaviy fotosurati bitta A3 o'lchamdagibir tomonlama, gorizontal(albom) shaklda varaqqqa joylashtirilishi kerak. Ishlatilgan shriftning minimal hajmi 10 bo'lishi kerak.
- Ro'yxatdan o'tganda jo'natilgan raqamni asarning o'ng tomonning pastki qismida yozing.
- Ma'lumotlarni faqat ingliz yoki yapon tilida kiritish kerak.
- Asarda ishtirokchini ifodalovchi iboralar, belgilar ishlatsilmasligi lozim.
- A3 o'lchamdagini asarni PDF shaklida yuboring.
- Taqdim etilgan asar ma'lumot hajmi 3MB dan kam bo'lishi kerak.

#### **2 Ariza beruvchining (guruh bo'lsa uning barcha a'zolari) turli ta'lim muassasalarida ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjat [PDF, jpg yoki GIFshaklida]**

- O'qiyotganlik haqida ma'lumotnomasi va talabalik guvohnomasi kabi turli ta'lim muassasalariga o'qishga kirganni tasdiqlovchi hujjatlarni PDF, jpg yoki GIF shaklida jo'nating.
- Har bir fayl hajmini 1MB dan kam bo'lishi kerak.

\* Asarni jo'natish uchun, oldindan ro'yxatdan o'tgan elektron pochta manzili va jo'natilgan maxfiy raqam kerak bo'ladi.

### **Ishni topshirish bilan bog'liq ehtiyyot choralari**

- Oldindan ro'yxatdan o'tish paytidagi elektron pochta manzili uchun kotibiyatdan elektron pochta xabarlarini oladigan domenden foydalaning.

### **Tavsiya etilgan elektron manzil domeni: @gmail.com**

Kotibiyat tomonidan qabul qilinmaydigan elektron manzil domenlar: **@mail.ru, @bk.ru, @list.ru, @inbox.ru]**

- Oldindan ro'yxatdan o'tish tugagach, bu haqda qatnashuvchining elektron pochta manziliga yuboriladi. Bu haqda ma'lumot olmaganlar electron pochtaning spam qutisi va ro'yxatdan o'tish haqidagi ma'lumotnomani tekshiring.

Asarni jo'natish muddati tugagandan so'ng, topshirilgan asarni o'zgartirish yoki qayta ko'rib chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

- Asarni yaratishda sarflangan xarajatlar uchun ishtirokchi zimmasida bo'ladi.
- Uchinchi shaxsning huquqlarini buzish xavfi mavjud bo'lsa, ruxsatnomasi olinishi lozim.
- Taqdim etilgan asarda mualliflik huquqi kabi boshqalarning huquqlari buzilgan deb topilsa, ariza va mukofot bekor qilinadi. Taqdim etilgan ish bo'yicha huquqlarning buzilishi yoki zararni qoplash to'g'risidagi da'volar uchun uchinchi shaxs tomonidan sudga da'vo yoki e'tiroz bo'lishi ehtimoldan yiroq bo'lмаган taqdirda, ariza beruvchi uni hal qilish uchun javobgar bo'ladi, tashkilotchi va homiy kompaniyalar esa javobgarlikni olmaydi.
- Taqdim etilgan ish avval e'lon qilingan dizaynga o'xshashligi aniqlansa yoki u boshqalarning huquqlarini buzgan deb topilsa, ariza va mukofot bekor qilinadi. Bundan tashqari, tashkilotchi uchinchi shaxs huquqlarining buzilishi natijasida yuzaga kelgan har qanday muammo uchun javobgar bo'lmaydi.

### **Asarlarni baholash bosqichi:**

- 2023-yil may oyi o'rtalarida hakamlar hay'ati tomonidan 10 ta asar tanlab olinadi.
- G'olib deb topilgan asar ishtirokchiga xabar qilinadi va rasmiy veb-saytda e'lon qilinadi.
- Barcha g'oliblar shu 10 ta tanlab olingana asar orasidan aniqlanadi.
- G'olib deb topilgan asar muallifi ish kotibiyat tomonidan belgilangan sanaga qadar quyidagilarni taqdim etishlari kerak bo'ladi \*Tafsilotlar g'olibga alohida e'lon qilinadi.
- Taqdimot videosi (5 daqiqadan oshmasligi kerak)

- Taqdim etilgan dizaynning 1/5 dan 1/1 gacha bo'lgan o'lchovli shaklda bo'lishi kerak. (material tanlash erkin, taqdim etilgan dizayn modellari qaytarib berilmaydi)
- Yakuniy baholash (har bir mukofotga loyiq asarni tanlashda) hakamlar taqdim etilgan asarlar va taqdimot videolarasi asosida muhokama qilinganidan keyin aniqlanadi.
- G'olib asar mualliflari Hokkaydoning Higashikava shahriga taqdirlash marosimiga tashrif buyurishlari lozim (Marosim, 2023 yil 25 iyunga rejalashtirilgan).
- Tanlov varaqasi noto'g'ri to'ldirilgan yoki hujjatlarda kamchilik kuzatilsa sovrin bekor qilinishi mumkin.
- Asarni baholash mezonlari, baholash standartlari va shu kabi savollarga javob berilmaydi.

### **G'oliblarning taqdirlash marosimi sanasi va joyi**

2023-yil 25-iyun (yakshanba) Hokkaydoning Higashikava shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

#### **Sovrinlar va pul mukofotlari:**

- Kengo Kuma mukofoti (Eng yuqori mukofot, bitta) 500 000 yen pul mukofoti
- Mukammal asar uchun mukofot (3 ta asar uchun ) 100 000 yendan
- Faxriy maqtov (6 ta asar uchun )

\*G'oliblarning yakuniy namoyish va taqdirlash marosimida ishtirok etishlari so'raladi.

\*Yaponiyadan boshqa davlatdan tanlovda ishtirokchilari bo'sa, Higashikavaga taklif qilinishi uchun pasportingiz bo'lishi kerak. Tanlovda ishtirok etish qabul qilingan qatnashish orasida muddat juda qisqa bo'lgani uchun oldindan tayyorgarlik ko'rishingiz so'raladi.

\*Higashikava shahriga kelgunga qadar sarflangan transport xarajatlari (xususan, aeroportdan yashash joyiga borib-kelish transport xarajatlari) va turar joy xarajatlari Ijroiya qo'mitasi tomonidan qoplanadi. Biroq, guruh bo'lib ariza topshirilganda faqat o'sha guruh vakiligina taklif qilinishi mumkin.

\*Tanlangan asarlar tijoratlashtirilishi mumkin. To'liq ma'lumotlar g'olib bilan alohida muhokama qilinadi.

#### **Tanlov hakamlari:**

- **Hakamlar hay'ati raisi:** Kengo Kuma (arxitektor, Tokio universiteti faxriy professori)
- **Hakamlar:**

Eisuke Tachikava (dizayn strategi, evolyutsion mutafakkir, NOSIGNER vakili)

Tokoro Asao (rassom)

Xiroshi Nakamura (arxitektor, NAP NAP Arxitektura dizayn byurosi)

Masahiro Harada (arxitektor, Shibaura texnologiya instituti professori)

Katsuhiko Hibino (rassom, Tokio san'at universiteti professori)

Teppei Fujivara (arxitektor, Yokohama milliy universiteti dotsenti)

Toshiko Mori (Garvard universiteti GSD professori)

Kenji Oda (kafedra ilmiy xodimi, Higashikava shahar dizayni bo'yicha maslahatchi)

### **Huquqiy masalalar:**

- Taqdim etilgan asarlar (jumladan, chizmalar) tashkilotchiga tegishli bo'lib, ular qaytarilmaydi.
- Taqdim etilgan asarlarning barcha dizayn va mualliflik huquqi ishtirokchiga tegishlidir.
- Asar tijorati bo'yicha g'olib bilan alohida huquqiyjihatdan muhokama qilinadi.
- Tashkilotchi asarni ko'rgazmaga qo'yish, uni ommaviy axborot vositalari va jurnallarda chop ettirish huquqiga ega.
- Tashkilotchi ishtirokchi taqdim etilgan asarni uni ogohlantirmsandan ko'rgazmaga qo'yishi, qilish, taqdimot o'tkazishi, tahrirlash, o'zgartirish kiritish, nusxa ko'chirish, tarqatish kabi erkin foydalanish huquqiga rga.
- Tanlov tashkilotchisi g'olib deb topilgan ishni tijoratlashtirish bo'yicha muzokaralar ustuvorligini belgilashga haqli.

Tashkilotchi yoki homiy kompaniya taqdim etilgan ishni ommaga taqdim qilish kabilarda erkin foydalanish mumkin va bu uchun to'lov olinmaydi. Tashkilotchi yutuqli ishni sotishdada imtiyozli muzokaralar olib borish huquqiga ega.

### **Tashkilotchilar tomonidan majburiyatlardan ozod qilish bo'yicha:**

- Tashkilotchi ishtirokchining taqdim etilgan arizalari va asarlari bilan bog'liq zararni qoplash uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi. Tashkilotchining beparvoligi yoki qo'pol xatti-harakat qilsa bundan mustasno.
- Ushbu tanlov jadvali va mazmuni oldindan ogohlantirmsandan o'zgartirilishi mumkin.

### **Tanlov tashkilotchilari:**

"Kengo Kuma & Higashikava-cho" KAGU Dizayn tanlovi Ijroiya qo'mitasi

Xigashikava shahri, Xigashikava savdo-sanoat palatasi, Higashikava sayyoqlik uyushmasi, Higashikava qishloq xo'jaligi uyushmasi, Higashikava qurilish sanoat uyushmasi, Higashikava o'rmon xo'jaligi uyushmasi, Higashikava targ'ibot jamoat korporatsiyasi, Asahikava mebel sanoati uyushmasi, Higashikava shahar kengashi, Higashikava shahar ta'lif boshqarmasi

Ijroiya qo'mitasi kotibiyati: Higashikava madaniyat va almashinuv boshqarmasi

☎: +81 166-82-2111

✉: [official@kagu-higashikawa.jp](mailto:official@kagu-higashikawa.jp)